

“Ta’minot zanjirini moliyalashtirish”  
(Supply Chain Finance) loyihasi asosida faktoring  
operatsiyalarini o‘tkazish  
va hisobini yuritish to‘g‘risidagi  
Vaqtinchalik Tartibga  
9-sonli ilova

“Asia Alliance Bank” ATB tomonidan  
“Ta’minot zanjirini moliyalashtirish” (Supply Chain  
Finance) loyihasi asosida faktoring operatsiyalarini  
o‘tkazish va hisobini yuritish to‘g‘risidagi  
Vaqtinchalik Tartibi”ga kiritilayotgan 1-sonli  
o‘zgartishlar va qo‘shimchalarga 4-sonli ilova

**“XALQARO FAKTORING”  
nomli mahsulot pasporti (online tartibda)**

Ko‘rsatkichlar	Tavsifi
Mahsulot maqsadi	Yetkazib beruvchi tovar/mahsulot (bajarilgan ish/xizmat) lar bo‘yicha yuzaga kelgan yuzaga kelgan qarzdorliklarni Bank tomonidan diskont chegirilgan holda regress huquqi bilan moliyalashtirishni anglatadi.
Faktoring kompaniyasi tomonidan (Yetkazib beruvchi) bo‘yicha mahsulot oldindan limit metodologiyasi	<p>Yetkazib beruvchi bo‘yicha oldindan belgilangan limit quyidagi formula orqali aniqlanadi:</p> $L = \left( \frac{XA}{6} - \frac{T}{12} \right) * 50\%$ <p>Bunda: L – Oldindan belgilangan limit XA – Barcha bank tizimlaridagi xisobraqami bo‘yicha so‘nggi 6 oy davomida amalga oshirgan aylanma summasi; T – Barcha bank tizimidagi mavjud kreditlari va qarzlari bo‘yicha keyingi 12 oy davomida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan jami to‘lov. Agar natija “0” teng yoki manfiy bo‘lsa, mijozga oldindan belgilangan limit mavjud emasligini anglatadi. Shuningdek, eksportni qo‘llab quvvatlash maqsadida eksportyor korxonalarining umumiy muddati o‘tmagan kelajakda tushishi rejalashtirilgan eksport tushumi doirasida limit o‘rnatilishi mumkin</p>
Limit muddat (maks)	Limit muddati – 12 oygacha belgilanadi, ammo limit Bank tomonidan faktoring xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha majburiyat olinishi bo‘yicha ko‘zda tutmaydi. Mavjud qarzdorliklar so‘ndirib borilishi bilan limit miqdori limit muddati doirasida qayta tiklanish xususiyatiga ega.
Limit summani tasdiqlovchi vakolatli organ	Amaliyot boshqarmasi/MBXO Kredit komissiyasi; Bank kredit qo‘mitasi; Bank Boshqaruvi; Kuzatuv Kengashi.
Faktoring muddati	180 kungacha;
Regress huquqi mavjud yoki mavjud emas	Regress huquqli
Kompaniya tomonidan Limit o‘rnatiladigan korxonalar	Yetkazib beruvchi
Kompaniya tomonidan moliyalashtiriladigan korxonalar	Yetkazib beruvchi
Valyuta turi	Xorijiy kontrakt valyutasida

Mahsulot narxi	<i>(diskont summasi faktoring muddatidan kelib chiqib, proporsional miqdorda belgilanadi, yillik 360 kunlik bazaviy davr asosida amalga oshiriladi, misol uchun: 3 oyga ya'ni 90 kunga 3,8% belgilangan bo'lsa, shundan kelib chiqib, 1 oy uchun 1,3%)</i>		
	Aqsh Dollarida		
	30 kungacha – 1,3%	60 kundan 90 kungacha – 3,8%	120 kundan 150 kungacha – 6,2%
	30 kundan 60 kungacha – 2,6%	90 kundan 120 kungacha – 5,0%	150 kundan 180 kungacha – 7,4%
	Rublda		
	30 kungacha uchun 1,75%-2,5%	60-90 kungacha 5,25%-7,5%	120-150 kungacha 8,75%-12,5%
	30-60 kungacha 3,5%- 5,0%	90-120 kungacha 7,0%-10,0%	150-180 kungacha 10,5%-15%
Muddati o'tgan qarzdorlik	Agar faktoring to'lovlari belgilangan muddatda to'lanmasa va u bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik yuzaga kelgan taqdirda To'lovchi/Yetkazib beruvchi bankka kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasing 0,1% miqdorida jarima to'laydi, bunda bazaviy davr 365 kun asosida amalga oshiriladi.		
% stavka bo'lsa o'zgarmas yoki o'zgaruvchanligi	O'zgarmas (qat'iy)		
Mahsulotni taqdim etish usuli	Pul ko'chirish yo'li bilan		
To'lovchi va Yetkazib beruvchiga qo'yiladigan talablar	<p><b>Yetkazib beruvchi bo'yicha:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. "Asia Alliance Bank" ATB tizimida asosiy/ikkilamchi hisobraqami va xorijiy valyutadagi xisob raqamlari mavjudligi;</li> <li>2. "Asia Alliance Bank" ATB tizimida asosiy/ikkilamchi hisobraqam ochilganiga 6 oydan kam bo'lmasligi;</li> <li>3. "Asia Alliance Bank" ATB tizimidagi hisobraqamida so'nggi 6 oy davomida uzluksiz aylanma (faoliyatidan tushum) amalga oshirganligi;</li> <li>4. Bank tizimida Kartoteka-2 hisobraqamida qoldiq summa mavjud bo'lmasligi;</li> <li>5. Barqarorlik reytingi "AAA", "AA", "A", "BBB", "BB", "B", "CCC", "CC", "C", reytinga ega bo'lgan;</li> <li>6. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2-son shakl) foyda bilan yakunlangan bo'lishi, bundan qonun hujjatlariga muvofiq asoslantirilgan holatlarda zararda yakunlangan hollar mustasno;</li> <li>7. O'z aylanma mablag'lari mavjudligi ijobiy ko'rsatkichda bo'lishi;</li> <li>8. Mavjud kredit va unga tenglashtirilgan operatsiyalar bo'yicha muddati o'tgan kredit qarzdorligi bo'lmasligi;</li> <li>9. Kredit tarixi bo'yicha oxirgi 5 yil ichida: <ul style="list-style-type: none"> <li>30+dan oshgan muddati o'tgan qarzliliklari 2 tadan ko'p bo'lmasligi;</li> <li>60+dan oshgan muddati o'tgan qarzliliklari 1 tadan ko'p bo'lmasligi;</li> <li>90+dan oshgan muddati o'tgan qarzdorliklari bo'lmasligi;</li> </ul> </li> <li>10. Bank tizimida bugungi kunda mavjud kreditlari yuzasidan asosiy qarzdorlik bo'yicha oraliq hamda yakuniy to'lov muddatini uzaytirish holatlari bo'lmasligi;</li> <li>11. Bugungi kunda mavjud kreditlari yuzasidan kreditga hisoblangan foiz qarzdorligi bo'yicha to'lov muddatini uzaytirish holatlari bo'lmasligi;</li> <li>12. Oxirgi 3 yilda kredit xizmatlari bo'yicha <i>(javobgar uchun</i></li> </ol>		

	<p><i>kafillik taqdim etilgan holatlar ham hisobga olinadi</i>) iqtisodiy sudda da'vo arizalari mavjud bo'lgan va da'vo arizasi qisman yoki to'liq qanoatlanirilgan bo'lmasligi.</p> <p><b>To'lovchi bo'yicha:</b></p> <p>1. Yetkazib beruvchi(eksportyor)ning tegishli xorijiy hamkori (importyor) bilan tuzilgan va tashqi savdo operatsiyalari yagona elektron axborot tizimiga kiritilgan eksport kontraktlari bo'yicha importyor (xaridor)da muddati o'tgan debitorlik qarzi yoqligi xalqaro faktoring xizmatlari ko'rsatilishi mumkin;</p> <p><b>Limit o'rnatilgandan so'ng har bir Pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash bo'yicha tuzilayotgan shartnomadan oldin</b></p> <p><b>Yetkazib beruvchi bo'yicha:</b></p> <p>1. Bank tizimida Kartoteka-2 hisobraqamida qoldiq summa mavjud bo'lmasligi;</p> <p>2. Yetkazib beruvchining Majburiy ijro byurosi tomonidan ochilgan ijro ishi bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan mablag' bo'lmasligi lozim</p>
<p>Talab qilinadigan asosiy hujjatlar ro'yxati:</p>	<p>1. Yetkazib beruvchi:</p> <p>1.1. Faktoring bo'yicha limit o'rnatish uchun ariza: faktoring hajmi, foydalanish muddati va shu kabi ma'lumotlar qayd etilishi lozim;</p> <p>1.2. Har bir tuzilishi rejalashtirilayotgan "Pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash"(faktoring) shartnomasi tuzish uchun ariza: faktoring hajmi, foydalanish muddati va shu kabi ma'lumotlar qayd etilishi lozim;</p> <p>1.3. Ustav va ta'sis shartnomasining o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan nusxalari, ro'yxatdan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi.</p> <p>1.4. Ta'sischilarning faktoringni olish va belgilangan muddatlarda qaytarishga roziligi to'g'risidagi bayonnoma, agarda korxonada ustavida belgilangan bo'lsa.</p> <p>1.5. Direktorni tayinlash to'g'risidagi buyruqning nusxasi, direktor va bosh buxgalterning pasportlari.</p> <p>1.6. Yetkazib beruvchining tegishli davlat soliq inspeksiyasiga oxirgi hisobot davri (choraklik, yillik) uchun taqdim qilgan buxgalteriya balansi (1-son shakl), moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot (2- son shakl), debitor-kreditor qarzdorliklari yoyilmasi;</p> <p>1.7. Tovar/mahsulotlar yetkazib berish bo'yicha shartnomalar nusxalari;</p> <p>1.8. Tovar/mahsulotlar yetkazib berilganligini (xizmat ko'rsatilganligini) tasdiqlovchi xujjatlar – qabul qilish topshirish, tovar-transport yuk xatlari, ishonchnomalarning ko'chirma nusxalari, bajarilgan ishlarni qabul qilish dalolatnomalari va boshqalar;</p> <p><b>1. To'lovchi importyor bo'lganda:</b></p> <p>1.1. Ustav va ta'sis shartnomasining o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan nusxalari, ro'yxatdan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi.</p> <p>1.2. Ta'sischilarning faktoringni olish va belgilangan muddatlarda qaytarishga roziligi to'g'risidagi bayonnoma, agarda korxonada ustavida belgilangan bo'lsa.</p> <p>1.3. Direktorni tayinlash to'g'risidagi buyruqning nusxasi, direktor va bosh buxgalterning pasportlari.</p> <p>1.4. To'lovchining tegishli davlat soliq inspeksiyasiga oxirgi hisobot davri (choraklik, yillik) uchun taqdim qilgan buxgalteriya balansi (1-son shakl), moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot (2- son</p>

	shakl), debitor-kreditor qarzdorliklari yoyilmasi; <i>Zaruriyatga qarab To'lovchi va Yetkazib beruvchilardan qo'shimcha hujjatlar talab qilinishi mumkin.</i>
<b>Quyidagi xalqaro ajratilmaydi:</b>	<b>hollarda faktoring</b> 1. Eksportyor va Importyor o'rtasida o'zaro hamkorlik kamida 1 ta bo'lgan oldi sotdi amaliyotlar amalga oshirilgan bo'lishi shart; 2. Importyor davlat ofshor hududda joylashganda